



## TIL O'RGANISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING O'RNI VA SAMARASI

Nosirova Surayyo

A first-year student at the Uzbekistan State World Languages in the Faculty of Philology and Teaching English, located in the Uchtepa district of Tashkent Phone number: +998998113530 Email:

surayon8@gmail.com

**Annotatsiya:** Bugungi kunda zamонавија технологија ва турли xil foydali ilovalar orqали yoshlarning til o'rganish jarayoni oson va samarali bo'lmoqda. An'anaviy usullardan voz kechib,zamon bilan hamnafaslikda til o'rganishda elektron darsliklar va axborot vositalaridan foydalanish,yosh til o'rganuvchilarning vaqtini mazmunli tarzda o'tkazish katta ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar:** Interaktiv metodlar,Youtube,innovatsiya,zamонавија pedagogika,masofali o'qitish,Ted Talk,didaktik kategoriya

**Abstract:** Today, through modern technology and a variety of useful applications, the language learning process of young people is becoming easier and more efficient. Of great importance is the use of electronic textbooks and news media in language learning, the meaningful transfer of the time of young language learners, while abandoning traditional methods and keeping pace with the Times.

**Key words:** Интерактив методар,Youtube,инновации,zамонавија педагогика,масофали о'qitish,Ted Talk,didaktik kategoriya

**Аннотатиция:** Сегодня благодаря современным технологиям и различным полезным приложениям процесс изучения языка молодыми людьми становится простым и эффективным. Отказавшись от традиционных методов и используя электронные учебники и информационные носители при изучении языка в гармонии со временем, важно осмысленно проводить время молодых изучающих языка.

**Ключие слова:** Интерактив методар,Youtube,инновации,zамонавија педагогика,масофали о'qitish,Ted Talk,didaktik kategoriya

### KIRISH

Hozirgi kunda ta'limgan jarayonida interaktiv metodlar innovatsion texnologiyalar pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri shu vaqtgacha ananaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamонавија texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zları qidirib topishlariga,



mustaqil o'rganib tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zları keltirib chiqarishlariga o'rgatadi.

O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lif jarayonida o'quvchi asosiy fokusga aylanadi. Zamonaliv pedagogikada ta'lif berishning umumiy shakllari va o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish shakllari (dars, fan, texnika to'garaklari, o'quvchilar ilmiy uyushmalari, ekskursiyalar) farqlanadi. Pedagogik texnologiya masalalari muammolarni o'rganayotgan o'quvchilar, ilmiy tadqiqotchilar, amaliyotchilarning fikricha pedagogik texnologiya – bu faqat axborot texnogiyasi bilan bog'lik hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan TSO, kompyuter masofali o'qitish yoki texnikalardan foydalanish deb belgilanadi.

Pedtexnologiyaning eng asosiy negizi bu o'qituvchi va o'quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalarga bog'lik.

Ya'ni o'qitish jarayonida maqsad bo'yicha natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lif texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ham ijobjiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida mustaqil fikrlay olsa, ijod qilsa, izlansa, tahlil qilsa, xulosa chiqarsa, o'zlariga guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o'qituvchi ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yaratса, shu o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi.

Masalan, hozirda ingliz tilini zamon talabi ekanligi barchaga a'yon. Aynan ushbu tilini o'rganish uchun „Sapling foundation“ tomonidan asos solingan Ted Talk platformasi barcha yoshlar uchun qulay unda til o'rganish bilan birga turli mavzularda turli olimlarning qarashlari, g'oyalari, bilan ham batafsil tanishish mumkin. Va platformada turli aksentlardagi nutqlar ham berib boriladi.

O'rganuvchi esa har tomonlama talaffuzini yaxshilab oladi. Bundan tashqari, bugungi kunda ko'plab ilovalar ham yoshlarga til o'rganish uchun qulay imkoniyatlar yaratib bermoqda. Jumladan, Duolingo ilovasi. Ushbu turli tillrni o'rgatishga mo'llajlangan ilova o'zining qiziqarli interaktiv darslari bilan ajralib turadi.

Maqsadni amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish, ham o'qituvchi ham o'quvchining hamkorlikdagi faoliyati hamda ular qo'ygan maqsad tanlangan mazmun, metod, shakl, vositaga ya'ni texnologiyaga bog'lik. O'quvchi va o'qituvchi maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari o'z ixtiyorida. Chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq: natijaga erishiga qaratilgan, bunda o'quvchi bilim saviyasi guruh xarakteri sharoitiga qarab ishlataladigan texnologiyalar tanlanadi. Har qanday yangilik jamiyatdagi o'zgarishlar tufayli va ilmiy texnika taraqqiyotining mantiqiy davomi sifatida paydo bo'ladi. Faoliyat sohalarida yangiliklar bo'lishi muqarrar. Ilmiy texnika





taraqqiyoti korxona va tashkilotlarning mehnat faoliyatida muhim o'zgarishlarni taqazo etadi.

O'qituvchi innovatsion yondashuv asosida o'quvchilarning texnologik kompetensiyasini shakllantirish uchun, eng avvalo, pedagogik innovatsiyalar to'g'risida tushunchaga ega bo'lishi kerak. Pedagogik innovatsion jarayonlar

G'arb davlatlarida o'tgan asrning 50-yillari oxirlaridan boshlab, mustaqil O'zbekistonda esa, keyingi 10-yillikda olimlar tomonidan maxsus o'rganila boshlangan. So'nggi yillarda mamlakatimiz olimlari tomonidan innovatsiya, innovatsion tafakkur, innovatsion faoliyat, innotvasion bozor, pedagogik innovatsiyalar haqida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Har qanday amaliy ish usullari va yakunlangan operatsiyalardan tashkil topadigan mehnat faoliyatları izchil harakatlar tizimidan iborat. Amaliy faoliyatni o'rganish va o'zlashtirish tartibi o'quvchilar tayyorgarligining u yoki bu tizimini aniqlab beradi.

O'quvchilarni texnologiyaga o'rgatish tizimi deganda "o'qitish mazmuni, metodlari va uni tashkil qilish birligini nazarda tutuvchi va texnologiyaning muayyan bo'limi bo'yicha zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarni egallash maqsadida o'quvchilarning o'quv materialini o'rganish izchilligi"ni belgilab beruvchi "didaktik kategoriyanı" tushunish kerak.

Masalan, o'qituvchi dars mobaynida Youtube platformasidan darsni qiziqarliroq, interaktiv tarzda o'tishda foydalanishi mumkin. Ushbu platformada bugungi kunda „Ibrat farzandlari“ nomli loyiha bo'lib har bir dars o'ta oson tushuntirilgan va o'quvchini zeriktirib qo'ymaydi. O'qitishning maqsadi va natijasi o'quv faoliyati jarayonida shaxsda shakllanadigan yangi sifatlardir. Bu ko'proq o'quv ishini tashkil qilishning yuqorida ko'rib chiqilgan metodlari asosida produktiv o'qitishga tegishlidir.

Produktiv o'qitish o'quvchilarni tayanch reproduktiv o'qitish bo'limlarini o'z ichiga oladi. O'quvchilar keyinchalik ijodiy amaliy o'quv faoliyatiga jalb etiladi. U M.N.Skatkin va I.YA.Lerner tomonidan taklif qilingan o'quvchilarning bilish faoliyati ahamiyati, o'rni va xususiyatiga bog'liq holda fikrlash yo'nalishlarini hisobga oluvchi va o'quv jarayonini tashkil etishning tushuntirish-illyustrativ, reproduktiv, muammoli, evristik (qisman-izlanishli) va tadqiqot metodlarini o'z ichiga oluvchi o'qitish metodlari tipologiyasi asosida qurilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, til o'rganishda zamonaviy texnologiyalarni ifg o'rni beqiyos. Agar yaratilgan imkoniyatlardan til o'rganuvchilar oqilona foydalansa, ularning tillarni o'rganish jarayoni ancha osonlashadi va samaradorligi ortadi. Va yuqorida aytilgan usul-vositalar orqali umumiy o'rta ta'lim maktablarida tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish orqali texnologiya ta'limida o'quvchilarga til o'rgatish jarayonining





samaradorligi oshadi. Natijada o‘quvchilarning dunyoqarashi kengayadi, mustaqil fikrlashi ortadi, va o‘z fikrlarini turli tillarda bayon etishga imkoniyat yaratiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O‘. J.Yo‘ldoshev Umumiyl Pedagogika. Toshkent-2017
2. H.T.Omonov, N.X. Xo‘jayev, S.A.Madyorova, E.U.Eshchonov. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat”.Iqtisodiyot-Moliya” Toshkent-2009
- 3.Shomirzayev M. X. Developing educational technologiesin school technology education //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2021. – T. 10. – №. 5. – C.
- 4.73-79. Bekmuratova U. B. “Ingliz tilini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish” mavzusida referat. Toshkent — 2012 yil
5. Отабоева, М. Р. Chet tilini o‘qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi / М. Р. Отабоева. — Текст: непосредственный, электронный // Молодой ученый. — 2017. — № 4.2 (138.2). — С. 36–37. — URL: <https://moluch.ru/archive/138/39058/> (дата обращения: 27.04.2020)
- 6.Pankov I.P., Zakharov V.P. Information retrieval systems // Applied linguistics. – St. Petersburg, 1996. – P. 334-359

